



BRIEF DESCRIPTION OF THE SOCIO-ECONOMIC SITUATION OF THE JIZZAKH REGION IN THE 70-80S OF THE 20TH CENTURY

Marufjon Abdusodikov
Lecturer
Oriental University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jizzakh, region, social, economic, agriculture, cotton growing, industry, chemical industry, ecology, deserts, mountains and steppes, industry.

Received: 08.10.24

Accepted: 10.10.24

Published: 12.10.24

Abstract: the article contains a general description of the socio-economic situation of the Jizzakh region in the 70-80s of the twentieth century, the development of such industries as agriculture and industry, as well as some problems. The article also analyzes the environmental situation in the region, irrigation of lands, the exploitation of the Jizzakh deserts for the development of cotton growing, the negative impact of the cotton monoculture on the lifestyle of the population.

XX ASRNING 70-80-YILLARIDA JIZZAX VILOYATI IJTIMOYIY-IQTISODIY HOLATINING QISQACHA TAVSIFI

Marufjon Abdusodiqov
ilmiy tadqiqotchi
Oriental universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Jizzax, viloyat, ijtimoiy, iqtisodiy, qishloq xoʻjaligi, paxtachilik, sanoat, kimyo sanoati, ekologiya, choʻllar, togʻ va dashtlar, tarmoq.

Annotatsiya: maqolada XX asrning 70-80-yillarida Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy holatining umumiy tavsifi, unda qishloq xoʻjaligi, sanoat kabi tarmoqlarning rivojlanishi va ayrim muammolar haqida soʻz yuritilgan. Shuningdek, maqolada viloyatdagi ekologik ahvol, yerlarni sugʻorish, paxtachilikni rivojlantirish maqsadida Jizzax choʻllarining oʻzlashtirilishi hamda paxta monokulturasining aholi turmush tarziga salbiy taʼsiri tahlil qilingan.

КРАТКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ В 70-80-Х ГОДАХ XX ВЕКА

Маруфжон Абдусодиқов
Научный исследователь
Ориентал университет
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джизак, область, социальная, экономическая, сельское хозяйство, хлопководство, промышленность, химическая промышленность, экология, пустыни, горы и степи, отрасль.

Аннотация: статья содержит общую характеристику социально-экономического положения Джизакской области в 70-80-х годах XX века, развития таких отраслей, как сельское хозяйство и промышленность, а также некоторых проблем. Также в статье анализируется экологическая ситуация в регионе, орошение земель, эксплуатация Джизакских пустынь для развития хлопководства, негативное влияние монокультуры хлопка на образ жизни населения.

Jizzax viloyati tarixiga e'tibor qaratilsa, bu haqida yozma manbalar orasida X asrda arab sayyohlari yozib qoldirgan ayrim ma'lumotlar muhim o'rin tutadi. Ushbu maskan arablar istilosiga qadar Ustrushonaning yirik hududlaridan biri bo'lgan. Jizzax viloyati o'zining moddiy va ma'naviy salohiyati, ishlab chiqarish ko'lami va dehqonchilik mahsulotlari yetkazish bo'yicha yurtimiz xalq xo'jaligida salmoqli o'ringa ega.

Viloyat shimoliy-sharqda Qozog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubiy-g'arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 21,1 ming kvadrat km. Jizzax viloyati tarkibida Arnasoy, Baxmal, Do'stlik, G'allaorol, Jizzax, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho'l, Paxtakor, Forish va Yangiobod kabi 12 ta tuman, 1 ta viloyatga bo'ysunuvchi shahar va 7 ta tumanga bo'ysunuvchi shahar (Gagarin, Do'stlik, Jizzax, Marjonbuloq, Paxtakor, Dashtobod, G'allaorol), 8 shaharcha (Bo'ston, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, O'smat, Uchquloq, Yangiqishloq, Qo'ytosh) mavjud [1. 36-bet.]

O'zbekistonning deyarli markaziy qismida joylashgan vohaning bir qismi cho'l, chalacho'l va dashtliklarga tutashib ketadi. Mintaqada tog', tog'oldi, pasttekisliklar bilan cho'l zonalarining tutashib ketishi uning o'ziga xosligidir. Shimol va shimoli-sharqdan zinapoyasimon shakldagi tekisliklar tog'liklar tomon ko'tarilib boradi. Hududning katta qismini yer tuzilishi tekisliklardan iborat Mirzacho'l egallagan. Vohaning yer yuzasi bir xil emas. U janubi-sharqdan shimoli-g'arbgacha tomon pasayib boradi. Tekislik qismi shimoli-g'arbgacha tomon nishab bo'lib, o'rtacha balandligi 250-300 m ga teng. Janubdagi tog' etaklarida balandlik 450-530 m gacha yetadi. Turkiston tizmasining shimoliy tarmog'i hisoblangan Morguzar tog'ining o'rtacha balandligi 1500-2000 m, ayrim cho'qqilari 2621 m gacha yetadi. U shimol tomonda Sangzor daryosining vodiysi orqali

Nurota tog'idan ajralib turadi. Vohaning yirik daryosi Sangzor daryosi (uzunligi 143 km) Turkiston, Qo'ytosh va Morguzar tizmasidagi qor-muz suvlaridan to'yinadi, yozda suvi ko'payib, qishda kamayadi. O'rtacha bir oydagi suv sarfi 6,1 m kub sekundni tashkil etadi. Shu bilan birga Zominsuv, Ravotsoy, Xo'jamushkentsoy, Sayxonsoy, Turkmansoy, Achchisoy, Qo'shchisoy, Jaloyirsoy kabi soylar Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'ridan boshlanib vohani suv bilan ta'minlab turadi. Viloyat hududidan uzunligi 143 km bo'lgan Sangzor daryosi oqib o'tadi. Yer osti suvlaridan foydalanish jami sug'orish tizimining 20 foizini tashkil qiladi. Uzunligi 94 km bo'lgan Tuyatortar kanali Zarafshon daryosi suvini Sangzorga quyadi. Bu suvlar bilan Baxmal, G'allaorol va Jizzax tumanlarida 37450 gektar ekinzorlar sug'oriladi [2.B.96]. Viloyat qishloq xo'jaligining asosiy zonasi Sirdaryodan suv oladi. Shu maqsadda 127 km uzunlikdagi va sekundiga 300 kub metr suv berish darajasidagi Janubiy Mirzacho'l kanali ishlab turibdi. 3 ta nasos stansiyasi suvni 176 metr balandlikka ko'tarib beradi. Shu bilan birga, 2-Janubiy Mirzacho'l kanali ham barpo qilingan. Bu kanallar orqali jami 232 ming gektar ekinzor suv bilan ta'minlash imkoniyati mavjud. Mintaqaning geografik jihatdan qulayligi qadimdan sayohatchilar hamda tadqiqotchilarning doimo e'tiborida bo'lib kelgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Xitoy bilan Yevropani bog'laydigan "Ipak yo'li"ning bir tarmog'i viloyat hududiga tutashgan Nur, Mingbuloq botig'i hamda Xorazm orqali Volgagacha borgan, shu orqali g'arb va sharqni bog'lovchi ikki yo'lni o'zaro tutashtirgan. Viloyat qishloq xo'jaligining asosiy zonasi Sirdaryodan suv oladi. Shu maqsadda 127 km. uzunlikdagi va sekundiga 300 kub. metr suv berish darajasidagi Janubiy Mirzacho'l kanali qurilgan [3.B.96].

XX asrning 70-80-yillarida qo'riq va bo'z yerlarning yuragi hisoblangan Sirdaryo va Mirzacho'l hududlarini yoppasiga paxtachilikka ixtisoslashtirishga kirishildi. Tadqiqotchi O. Komilovning yozishicha, 1970-1986-yillar oralig'idagi 30 yil ichida Mirzacho'lda 360 ming gektar qo'riq yerlar o'zlashtirilib, paxta ekishga moslashtiriladi va yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan 60 ta davlat xo'jaliklari tashkil etilgan.

1974-yildan boshlab o'zlashtirilgan cho'l va qo'riq yerlarga Andijon, Farg'ona, Samarqand, Jizzax viloyatining tog' va dashtli tumanlaridan 600 dan oshiqroq oilalar "majburiy-ixtiyoriy" ravishda ko'chirilganlar [4. 151-152-betlar]. Jizzax viloyati aholisining ijtimoiy, milliy va yosh bo'yicha tarkibi o'ziga xos. Jizzax viloyati bo'yicha 1991-yilda jami aholi 806,2 ming kishidan iborat bo'lib, aholining tabiiy o'sishi 27,2 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1995-yilda aholining umumiy soni 891,1 ming kishiga yetib, 85 ming kishiga ko'paydi, tabiiy o'sish 25,1 ming kishidan iborat bo'lgan [5. 51-varaq]. Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida aholini ko'chirish uchun bu hududga yaqin bo'lgan tog'li rayonlar tanlanganligi ham nisbatan yaxshi samara berdi. Masalan, asosan, Zomin va Forish tumanlaridan ko'chirib kelingan aholi hisobiga 1972-yillarning boshlarida Oq oltin tumanida – 16,4 ming, Do'stlikda – 11,2 ming, Ilichda – 24,1 ming,

Mirzacho‘lda – 15,7 ming, Paxtakorda – 26,4 ming, Yangiyerda – 32,4 ming aholi istiqomat qilgan. Mazkur 6 ta tumanda yangi ko‘chib kelganlar hisobiga ishchi kuchlarining ko‘payishi tufayli yetishtirilgan paxta hosili 200 ming tonnadan oshdi.

Bu yangi xo‘jaliklarda mehnat unumdorligining oshishiga samarali ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bilan bir qatorda, Mirzacho‘lga ko‘chib kelayotgan aholini joylashtirish, ularni uy-joy bilan ta‘minlash, uy-joy qurilishi rejasini o‘z vaqtida bajarilishiga erishish dolzarb masala bo‘lib qoldi. Faqat 1956-yilning o‘zida Mirzacho‘lga 10 ming kishi ko‘chib kelishi kutilgan bo‘lib, ularga shu yili 18 ming kvadrat metr uy-joy qurib berish rejalashtirilgan. Yangi o‘zlashtirilayotgan zonalarni ishchi kuchi bilan ta‘minlash aniq reja asosida olib borilmaganligi, ma‘muriyatchilikka yo‘l qo‘yilishi, ijtimoiy muhofaza qilish imkoniyatlarining bo‘rttirib ko‘rsatilishi, va‘dalarning to‘la bajarilmasligi ko‘chib kelganlarda ishonchsizlik uyg‘otdi. Oqibatda, ularning bir qismi o‘z yurtlariga qaytib ketishga majbur bo‘lishdi [6. 2021 dekabr.]. Albatta aholining yashash sharoitlarining yaxshi emasligi boshqa sohalarda ham ko‘zga tashlanadi.

Masalan, birgina aloqa tarmog‘ini oladigan bo‘lsak, 1989-yilda viloyatda 7407 ta telefon o‘rnatilgan. Shaharlarda har 100 kishiga 10,2 ta, qishloqlarda 3,1 ta telefon to‘g‘ri kelar edi [7. 1-varaql]. Bu yillarda telefon tarmoqlarida uzilishlar ko‘p uchragan. Masalan, Jizzax shahrida har kuni 300-400 telefon ishdan chiqib turgan. Bundan tashqari, aloqa xizmatlarining sifati pasayib ketdi. Shaharlararo telefon aloqasiga bajarilmay qolgan buyurtmalar soni oshib ketdi, ko‘pchilik taksafonlar ishdan chiqdi. Telegrammalar jo‘natishda ham shunday ahvolni kuzatish mumkin. Jizzax shahrida buyurtmani rad qilish foizi o‘sha davrda o‘rnatilgan normadagidan 7 barobar oshib ketdi. Shuningdek, telegrammalarni o‘z vaqtida yetkazib bera olmaslik holatlari ko‘payib ketdi. Aholiga haftaning 7 kuni mobaynida xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, bu xizmat bilan qamrov foizi 14,8%ni tashkil etdi [8. 5-varaql]. 1989-1990-yillarda viloyatdagi aloqa bo‘limlarining 17 tasi ularga to‘g‘ri kelmaydigan binolarda joylashgan edi [9. 6-varaql]. Paxtachilik va uning bir yoqlama rivojlantirilishi natijasida 70-80-yillarda viloyat xalq xo‘jaligini rivojlantirishga mo‘ljallangan mablag‘larning katta qismi paxtachilikka ajratildi va uning bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarga sarflandi.

Paxtachilik va boshqa sohalar butun choralar bilan rivojlantirib borishga e‘tibor qaratildi. Jumladan XX asr 50-yillardan boshlab respublikada qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish va Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida paxtachilik xo‘jaliklarini yangidan tashkil etishga e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda Mirzacho‘l, Jizzax cho‘llarini o‘zlashtirish uchun barcha kuchlar safarbar etildi. Bu paytda qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirishga, shu asosda paxta va g‘alla yetishtirishni ko‘paytirish chorolari ko‘riladi. Agar raqamlarga murojaat etilsa, 1953-1955-yillarda 130 ming gektar yangi yerlar o‘zlashtirildi, 1956-yili birgina Mirzacho‘lning o‘zida sug‘oriladigan yerlar maydoni 205000 gektarga yetgan edi. Paxta monokulturasining kuchayib borganligini yana shunda ko‘rish

mumkinki, agar 1950-yilda 1,1 mln. ga yerga paxta ekilgan bo'lsa, 1985-yilga kelib bu ko'rsatkich 2 mln gektargacha yetgan edi, hosildorlik har gektar hisobiga 20,1 sentnerdan 27,0 sentnerga ko'tariladi. Natijada g'alla, arpa, suli, makkajo'xori, meva, sabzavot hamda poliz ekinlari maydonlari qisqarib ketdi.

Xususan, g'alladan olinayotgan hosildorlik gektar boshiga atigi 5-8 senterni tashkil etgan bo'lib, 1985-yilda respublika bo'yicha atigi 387,9 ming tonna g'alla yetishtirilganligi Respublika aholisining ushbu ekin turiga bo'lgan ehtiyojini qondira olmas edi. Chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik sohalarini rivojlantirishda respublikaning imkoniyat darajasi qanchalik keng va va katta bo'lmasin, biroq bular ham sovetlar davrida yetarli foyda va daromad bilan ishlaydigan xo'jalik tarmoqlariga aylana olmadi. Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o'g'itlardan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Paxta xomashyosi yetishtirish 1970-1985-yillarda 5,5 barobar ko'paygan, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln gektardan ortdi [10.B.18].

Ommaviy ravishda qishloq xo'jaligiga e'tiborning kuchaytirilganligi qo'riq va bo'z yerlarning yuragi hisoblangan Jizzax, Mirzacho'l cho'llaridagi paxta maydonlarini sug'orish uchun suv inshootlaridagi manbalardan keragidan ortiq foydalanishlar natijasida Orol dengizining qurishiga, keskin suv tanqisligiga sabab bo'ldi. Jumladan, 1960-1970-yillarda uning suv sathi bir yilda 18 smga, 1971-1980-yillarda 53 smga, 1985-yilga kelib esa 87 smga yetgan edi. 1961-yildan 1991-yilgacha dengiz hajmi 3 baravar qisqaradi, uning qirg'og'i 75-80, ba'zi joylarda 100 kmga chekinadi. XX asr 60-yillaridan sovet hukumatining tashabbusi bilan O'zbekistonda paxta yetishtirish ko'rsatkichlarini yanada oshirish maqsadida yangi ekin maydonlarini ochish, irrigatsiya tarmoqlarini barpo etish kompaniyasi boshlanadi. Bu rejani amalga oshirish maqsadida Sirdaryoning suv resurslari paxta ekin maydonlarini sug'orish uchun sarflanib Orol dengiziga suv quyilishi umuman to'xtadi. Orol dengizining qurishi oqibatida yerlarning sho'rlanishi, tuproq unumdorligining keskin pasayib ketishi, atmosfera havosining ifloslanishi natijasida o'simlik va hayvonot dunyosining tabiiy muvozanati buzildi. Atrof muhitdagi ekologik o'zgarishlar bevosita inson salomatligiga ham jiddiy xavf sola boshladi. Bu esa o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida Orol muammosi kabi global muammoni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi [11. <http://www.centrasia.ru/news2.php?st=1210739760>].

Amalga oshirilgan siyosat natijasida tabiatga munosabat va Orol fojiasi natijasida flora va fauna buzildi, turli xil kasalliklar, jumladan, bepushtlik, ayollar va bolalar o'limi oshdi. Birgina misol, o'sha paytda AQSh va Yaponiyada tug'ilgan 1000 ta boladan 1-2 tasi yoshiga yetmay o'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, O'zbekistonda 46 taga yetganligini qanday izohlash mumkin. Ekoijtimoiy ma'naviy inqirozlar ko'rsatkichi aholi salomatligining yomonlashishida ham o'z aksini topdi. Jumladan, 1976-yildan 1990-yilgacha faqat O'zbekistonning o'zida katta yoshdagi va bolalar orasida umumiy kasalga chalinish (har 10 ming kishi hisobiga) muntazam o'sib borgan.

Respublika bo'yicha kattalar va o'smirlarning umumiy kasallanish intensiv ko'rsatkichi 1976-yilda 2466,5 tadan 1990-yilda 3598,6 taga yetgan. Jumladan, tashqi muhitning salbiy ta'siri tufayli asab tizimi, teri, teri osti kasalliklari 1989-yilning o'zida - 1,4, qon aylanish tizimi kasallanishi — 1,3 marta ko'paygan. Sil kasalligiga chalinish 3 foizga ko'paygan. Bolalar jumladan, go'daklar o'limi sobiq Ittifoqning boshqa hududlaridagi ko'rsatkichidan ikki marta yuqori bo'lgan. Respublikada har yili 200 mingga yaqin kishi gepatit kasaliga duchor bo'lgan [12.B.198].

Yer, suv, havoga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi ekoko'nikmalarimiz milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz kommunistik mafkura asosida shakllantirilgan sovet udumlarini qaror toptirish orqali unutildi. Ekomilliy ko'nikmalarimizning unutilishi esa yuz bergan fojining navbatdagi ma'naviy inqirozi edi. Viloyat aholisining aksariyati ko'proq qishloq xo'jaligi mehnatiga jalb qilinishi, paxta yakkahokimligi kabi salbiy holatlar, o'lka asosan xomashyo, ayniqsa paxta xomashyo bazasiga aylantirilishi boshqa qishloq xo'jalik ekin turlariga nisbatan teskari munosabatni shakllanishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligi maydonlariga maksimal darajada kimyoviy o'g'itlar berilishi natijasida xalq sog'lom turmush tarzi ayniqsa, yosh avlod genofondi uchun xavf paydo bo'ldi.

Keyingi salkam yarim asr davomida muammo bo'lib kelayotgan Orol dengizi muammosini hal etish uchun bir qator loyihalar taklif etilganligiga qaramay, ularning birortasi ham joriy etilmadi. XX asr 70-yillariga kelib yangi yerlar keng ko'lamda o'zlashtirilishi, sanoat, chorvachilik komplekslarining ekstensiv rivojlantirilishi, kollektor-zovur tizimlari qurilsa-da, ular asosan paxtachilik uchun xizmat qildi hamda kanal, lotoklar suvlari sug'orish uchun muttasil yuqori hajmlarda olindi. Shu bois havzalardagi suvning salmog'i kamaya boshladi. Orol dengizining qurishi keskin muammo, aytish mumkinki, milliy ekoinqiroz xavfini kuchaytirdi. Umuman, XX asrning 70-80-yillarida Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini biryuqlama xo'jalikka yo'naltirilgan, paxtachilik va asosan uni qayt ishlash hamda xom ashyo qazib chiqarishga asoslangan tizim sifatida baholash mumkin. Ayniqsa, viloyatda paxta monokulturasida natijasida kelib chiqqan inqirozli holat xalqning turmush tarziga salbiy ta'sir qildi. Uni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, viloyatda ekologiyaga zarar yetkazmaslik nuqtai nazaridan ishlab chiqarish korxonalarining mahalliy shart-sharoitlarga moslab joylashtirilmaganligi hamda qishloq xo'jaligida suvni va mehnatni ko'p talab qiladigan ekinlarni, ayniqsa, paxta ekin maydonlarining tobora kengaytirilishiga sabab bo'ldi;

Ikkinchidan, paxtachilik va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari ortidan quvilib, sifatiga kam e'tibor berilishi, shuningdek fuqarolar ma'naviyatida tabiatga oqilona munosabat faqatgina sotsializm qaror topgan jamiyatdagina mavjud bo'ladi, degan umuminsoniy qarashlarga zid dunyoqarash shakllangandi.

Uchinchidan, viloyatni iqtisodiy rivojlantirishda atrof-muhitga salbiy ta'sir etish mumkin bo'lgan jarayonlar e'tiborga olinmaganligi va ilmiy asoslanmaganligi, mahalliy aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatning natijasi edi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. T., 1996 B.36.
2. Xaydarov X. Jizzax viloyati tarixi. – T.: Mehnat,1996. B.96
3. Xaydarov X. Jizzax viloyati tarixi. – T.: Mehnat,1996. B.96
4. Komilov O. O'zbekistonda irrigatsiya tizimi rivojlanishi va uning oqibatlari (1951-1990-yy). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2017. 151-152-betlar.
5. Jizzax viloyati davlat arxivi, 448-fond, 11-ro'yxat, 57-ish, 51-varaq
6. Davletov R. 1946-1980-yillarda Mirzacho'l hududidagi migratsion jarayonlar // Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations. 2021-dekabr.
7. Jizzax viloyati davlat arxivi, 13-fond, 1-ro'yxat, 4034-ish, 1- varaq
8. Jizzax viloyati davlat arxivi, 13-fond, 1-ro'yxat, 4034-ish, 5- varaq
9. Jizzax viloyati davlat arxivi, 13-fond, 1-ro'yxat, 4034-ish, 6- varaq
10. Toshkentboev A. Jizzax viloyati. – Jizzax, 1994. – B. 18
11. Хлопковое дело в Узбекистане. Как это было:
<http://www.centrasia.ru/news2.php?st=1210739760>
12. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. -T.: O'qituvchi, 1994. 198-bet.